

MA'MURIY ISH YURITUVIDA – MA'MURIY HUJJATLARNING ROLI

Mamatov Samandar Baxtiyor o'g'li

TDTrU Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs Yu-5 guruh talabasi

E-mail: sammamatov2004@gmail.com

Tel raqami: +998 94 004 77 97

Ilmiy rahbar: M.M. Inagamova

Toshkent Davlat Transport universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'muriy ish hujjatlari va ularning tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari, chet el tajribasi, amaliyatda ular bilan bog'liq bo'lган muammolar va ularni bartaraf etish usullari yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Ma'muriy hujjat, ma'muriy organ, normativ akt, ommaviy huquq, ma'muriy tartib-taomil, maxsus ish.

Bugungi kunda boshqa huquq sohalariga qaraganda ma'muriy huquq sohasidagi ma'muriy hujjatlar tushunchasiga juda ko'p duch kelamiz. Sababi ma'muriy hujjatlar kundalik hayotda juda ko'p uchraydi. Misol uchun, yerdan foydalanish to'g'risidagi hokim qarori yoki litsenziya olish bilan bo'g'liq, notarial tasdiqlanadigan va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar. Ushbu hujjatlarning boshqa hujjatlardan qanaqa farqli jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari bor degan savol tug'iladi.

Ma'muriy hujjatlarning huquqiy maqomi masalasi ancha payt turli muhokama va bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bu masalaga 2018-yil 8-yanvar kuni uzil-kesil chek qo'yildi. Sababi aynan shu kuni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun ma'muriy hujjatlaning to'liq huquqiy maqomini ochib berdi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki ushbu qonunning eng asosiy qismini ma'muriy hujjatlarni qabul qilish, bekor qilish, o'zgartirish va haqiyqiy emas deb topish bilan bog'liq normalar tashkil etadi.

Qonunning 4-moddasida ma'muriy hujjat tushunchasiga alohida ta'rif berilgan bo'lib, unga binoan "Ma'muriy hujjat – ma'muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruv-chi ta'sir chorasisidir". "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun asosida fikr yuritar ekanmiz, birinchi navbatda, ma'muriy tartib-taomillar haqida olimlar fikrlarini keltirib o'tamiz. Bu borada ko'plab olimlar o'z nuqtai nazarlarini bildirishgan. Jumladan, ma'muriy tartib-taomillar fuqarolarning (ommaviy) ma'muriyat bilan bo'ladigan huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan va huquq subyektlarining o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish (ro'yobga

chiqarish)iga qaratilgan munosabatlar, manfaatdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydigan protsessual (ijobiy) faoliyatga qaratilgan munosabatlar, fuqaro va tashkilotlarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishni ta’minlashga xizmat qiladigan maxsus mazmundagi protsessual munosabatlar degan fikrlar olimlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Bu kabi tushunchalar tahlilini boshqa olimlarning asarlarida ham ko‘rish mumkin.

Ma’muriy hujjatning birinchi me’yoriy hujjatlari sifatida davlat boshqaruvi organi tomonidan muayyan munosabat bilan qabul qilingan ma’muriy yoki huquqiy hujjat hisoblanishi va boshqaruvning normativ aktidan farqli o‘laroq ma’muriy hujjat huquqiy normalar yaratmasligi, balki bevosita muayyan huquqiy munosabatlar, odatda, ma’muriy-huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishi, tugatishi yoki o‘zgartirishi ta’kidlangan.

Bundan ko’rinadiki, ma’muriy hujjatlar ushbu boshqaruv organining vakolati doirasida chiqariladi va belgilangan tartibda ijrochilar e’tiboriga yetkaziladi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi ma’muriy qonunchiligidagi ma’muriy hujjatning me’yoriy ta’rifidan oltita xususiyat ajralib turadi, ularning bajarilishi ma’muriy hujjatning mavjudligini ko‘rsatadi.

- ushbu chora ma’muriy organ tomonidan amalga oshirilishi;
- o‘lchov kuchi;
- ommaviy huquq o‘lchovi;
- tartibga solishga qaratilgan bo‘lishi;
- maxsus ish (ushbu chora muayyan ishni tartibga solishi kerak);
- tashqi huquqiy harakatga qaratilgan chora- tadbirdardan iborat bo‘lishi.

Aytish joizki, ma’muriy-hujjatlar tuzilishi uchun ham ma’lum talablar qo’yiladi. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning 53-moddasiga binoan ma’muriy hujjat qonuniy asoslangan,adolatli, aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Ushbu moddaga asosan ma’muriy hujjatda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim.

- ma’muriy hujjatning nomi va qabul qilingan sana,
- ma’muriy hujjatni qabul qilgan ma’muriy organning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili),
 - ma’muriy ish yuritish ishtirokchilari to‘g‘risidagi axborot,
 - ma’muriy hujjat orqali hal qilinadigan masalaning tavsifi (tavsif qismi),
 - ma’muriy hujjatning asosi (asoslantiruvchi qismi),
 - qabul qilingan qaror bayoni (xulosa qismi),
 - ma’muriy hujjat ustidan shikoyat qilish muddati va tartibi.

Protsessual hujjat esa ma’muriy organ tomonidan ma’muriy ish yuritish davomida qabul qilinadigan, ma’muriy ishni mazmunan hal etmaydigan hujjatlar hisoblanadi. Protsessual hujjatlar ma’muriy hujjat qabul qilinmasdan avval ma’muriy ishni ko‘rib chiqish jarayonida qabul qilinadi. Protsessual hujjat ishni tugal shaklda hal qilib

bermaydi. Masalan, litsenziya talab etiladigan faoliyat bilan shug‘ullanish uchun tegishli ma’muriy organning qarorini olish uchun murojaat qilish ma’muriy-huquqiy munosabatdir.

Ma’muriy organ tomonidan qabul qilingan qaror ma’muriy hujjat bo‘lsa, qaror qabul qilingungacha bo‘lgan bosqichda ishni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq qabul qilinadigan hujjat protsessual hujjat hisoblanadi. Demak, ma’muriy hujjatlar boshqa hujjatlardan farq qilar ekan. Shunga ko‘ra ma’muriy hujjatlarni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiyqiy emas deb topishning o‘ziga xos jihatlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonuniga binoan Ma’muriy hujjat manfaatdor shaxsning arizasi yoki ma’muriy shikoyatiga ko‘ra ma’muriy hujjatni qabul qilgan ma’muriy organ, yuqori turuvchi ma’muriy organ tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan ham bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Ushbu qonunga asosan ma’muriy hujjatni bekor qilish va o‘zgartirish uchun tashabbus manfaatdor shaxslar va hujjatni qabul qilgan organ tomonidan ham qabul qilinishi mumkin.

Xulosa o’rnida aytish joizki, yurtimizda oxirgi yillarda ommaviy-huquq sohasida olib borilgan keng ko‘lamli huquqiy islohotlar, jumladan ma’muriy tartib-taomillarning belgilanishi, alohida ma’muriy sud tizimining joriy qilinishi, fuqarolarimizning davlat boshqaruvi organlari bilan bir darcha tamoyili orqali munosabatga kirishishi tom ma’noda vatanimiz ravnaqiga hamda iqtisodiy farovonligimiz oshishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.06.2021 yildagi PF-6247-son “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta’minlash orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir qo‘sishcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2022 yildagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.